

MOBIL ILOVALAR YARATISH ZARURIYATI VA ISTIQBOLLARI

Mamatov Maxtumquli

TerDU magistranti

Normurodova O'g'iloy

TerDU magistranti

Tayanch so'zlar: mobil ilova, android studio, mobil operator, browser, App Store, Iphone App, "Barcha yo'llar" mobil ilovasi, Xcode, Crown, Eclipse Ide.

Mobil ilova nima? Mobil ilovalar yaratishni o'rganish nima uchun kerak? Bu kabi savollarga deyarli har kuni duch kelamiz. Mobil ilova bu android va boshqa mobil tizimlar uchun yaratilgan dasturlar to'plamidir. Bu foydalanuvchilar uchun ko'plab qulayliklar yaratadi. Masalan biror bir inson o'ziga kerakli ma'lumotlarni turli saytlar orqali olishga harakat qiladi ammo ayrim hollarda trafigi yo'qligi, browserlardagi xato va kamchiliklar tufayli ma'lum bir saytlarga kira olmashi mumkin yoki vaqt kamligi bois muammolar paydo bo'ladi. Hozirgi kunda biron bir dasturni yuklab olib kompyuter yoki mobil operatorlarga o'rnatish biroz qiyin, sababi barcha dastur bitta joyda yig'ilgan browser yoki sayt toppish mushkul. Dastur yuklash va o'rnatish uchun ko'plab savollarga javob berish, ayrim dasturlar uchun pul o'tkazish talab qilinishi, ro'yxatdan o'tishi, reklamalarga munosabat bildirish so'raladi, shu tartibda ko'p vaqt va anglashilmovchiliklar vujudga keladi, bunday hollarda mobil ilovalarning yordami kerak bo'ladi. Mobil ilovalar orqali qidirish, topish va internetsiz foydalanish birmuncha oson amalga oshiriladi. Mobil ilovalarni qidirib toppishda App Store, Iphone App kabi mobil dasturlar jamlanmasi yaratilgan bo'lib, bular orqali kerakli dasturlarni toppish qulaydir.

Rivojlangan mamlakatlarda barcha sohalarda mobil ilovalar yaratilgan bu sohalar rivoji uchun kata qulayliklar yaratib bermoqda. Birgina misol qilib turizm sohasi rivojlangan davlatlar (BAA, Fransiya, Buyuk Britaniya, Misr, Turkiya, Hindiston, Italiya, AQSH, Gretsiya) da turizm salohiyatini oshirish uchun mobil ilovalarda samarali foydalilanadi. Nima uchun mobil ilova sayohat sanoati uchun shart? Statistik ma'lumotlarga ko'ra, sayohat va turizm sohasi daromad topishning eng yuqori tizimi hisoblanar ekan. Sayohat Sayohat bugungi kunda odamlarning dunyoviy hayotining ajralmas qismiga aylandi. Xuddi shunday, turizm asosiy



daromad manbaiga aylandi. Internet mavjudlikning muhim jihatiga aylandi va hech qanday domen undan saqlanmaydi.

-Qayerga sayohat qilishni qanday hal qilasiz?

-Siz qayerda yo'nalishlar izlayotgan?

-Parvozlar va turar joylarda yaxshi narxlarni qanday topish mumkin?

-Kelganingizdan so'ng o'zingizni qanday joyda topasiz?

Eng yaxshi sayohat dasturlari bu savollarning barchasiga javob beradi. Sayohat va turizm sanoati oldindan bron qilish madaniyati bilan rivojlanadi va bu aniq xizmat va yetarli ma'lumotlari mavjud bo'lgan ilovalar talab qiladi.

To'g'ri, odamlar ularga yaqinlashmaydilar, hatto yaqinlashayotgan bo'lsalar ham, ular tashrif buyurmoqchi bo'lgan joy haqida juda yaxshi ma'lumotga ega. Turizm salohiyati rivojlangan davlatlarda yuqori sifatli mukammal tuzilgan mobil ilovalar mavjud. Misol uchun Airbnb-bu o'z uylarini ijaraga olmoqchi bo'lgan odamlarni o'sha joyda turar joy izlayotgan odamlar bilan bog'laydigan onlaysen bozor ilovasi. Bu dunyoning 191 dan ortiq shahrlaridagi turistik hududlarni dunyoning turli qismlaridan kelishi mumkin bo'lgan insonlarga xizmat ko'rsatadi. Sayohat va turizm sanoati uchun eng yaxshi sayohat ilovalaridan biri. Barcha yo'llar va noma'lum joylarning yaqinroq xaritasini namoyish qiluvchi "Barcha yo'llar" mobil ilovasi. Har bir sayyoh yoki tadqiqotchilar uchun telefonidagi barcha yo'llar kerak bo'lgan jarayonda bu ilova juda ko'p yordam beradi. Ilova qo'shma Shtatlar va Kanadadagi 75000 dan ortiq yo'llarning yo'nalishini, ushbu yo'llardan yurish imkoniyatlari, xavfsizligi kami imkoniyatlarni yaratadi. Yo'llarni toppish uchun eng asosiysi telefoningizda GPS yoqilgan bo'lishi aniq joylashuvningizni kuzatish imkonini beradi.

"Culture Trip" mahalli madaniyatni bilish uchun eng yaxshi sayohat dasturi hisoblanadi. Bu dunyoning 300 dan ortiq joylarida, sayohhlik obyektlari joylashgan mobil ilova bo'lib sayohat qiluvchilar va go'zallik ishqibozlari uchun juda qo'l keladi. Google Flights – parvozlarni bron qilish uchun eng yaxshi sayohat dasturi. Ushbu ilovada sayohatlarni osongina rejalshtirish uchun sizga kerak bo'lgan hamma narsa mavjud. Bu Sizning barcha sayohat, parvoz, mehmonxona va sayohat paketlari variantlarini baholashga yordam beradigan mustahkam ilovadir, bu ilovada yana bir bor narxlarni kafolatlash funksiyasi bilan parvozlarni bron qilish uchun konvertatsiya qilish imkoniyatlari bor. Google sizning Google hisobingizga kirganingizda sayohat marshrutlarini ko'rish imkonini beruvchi xususiyatni



qo'shdi. Qo'shimcha funktsiyalarga mehmonxonalar, restoranlar va Google-ni boradigan joyingizga qarab qilish uchun tavsiyalar kiradi.

Bu kabi ilovalar davlat turizm sohasidagi rivojlanishiga kata yordam beradi, chunki mobil ilovada sayohat qilish mumkin bo'lgan joylar aniq qilib belgilab qo'yilgan bo'lib sayyooh mobil ilovani Play market yoki App store kabi ilova magazinlaridan yuklab oladi va mobil telefoniga o'rnatadi natijada borishi mumkin bo'lgan nuqtalar haqida ma'lumotlar va yo'nalishlar olishi mumkin bo'ladi.

Yurtimizda ham IT sohasiga ko'p e'tibor qaratilmoqda, turizm sohasida mobil ilova bilan amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlar yetarlidir. Masal turistik hududlarning mobil ilovalari yaratilishi yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyoohlarga yana bir qulaylikdir. Hozirgi texnologiyalar asrida yashamoqdamiz shunday ekan biror bir hududni qidirganda yo'l belgilariga qarab emas yoki biror bir ma'lumotni izlaganda gazeta jurnallarni ko'rib topadigan davr emas bunda mobil ilovalar dasturlash sohasining ham o'ziga yarasha o'rni bor. Mobil ilovalar yaratish sohasi rivojlanib kelayotgan soha hisoblanadi, dunyoning barcha nuqtalarida dasturchilik kasbini o'rganayotgan va ko'plab loyihalar amalga oshirayotgan yoshlari va mutaxassislar ko'plab topiladi. Bu sohani o'rganish davr talabi hamdir, o'z kelajagini har bir sohada yuqori darajada ko'radigan davlat IT sohasiga katta e'tibor berishi tabiiy hol. Barcha sohalarda texnologiyaning o'sishi bilan innovatsion texnologiyalarni ta'lim bilan uyg'unlashtirish orqali ta'lim sohasida ham katta yaxshilanishlar kuzatildi. An'anaviy ta'lim tizimini to'ldirish uchun ta'limni raqamlashtirish - bu dunyoda savodxonlik va ta'limni oshirish uchun mukammal yechim. Mobil ilovalar yaratish texnologiyalarini bevosa barcha ta'lim tizimlariga kiritish lozim. O'quvchi yoshlari Kompyuter tizimlaridan ko'ra ko'proq mobil smartfonimizni olib yuramiz. Ilovalardan foydalanish bizning kundalik ishimizdir va smartfonlar yordamida qayerga borsak ham, avtobusda navbat kutib o'quv videosini tomosha qilishni yoki uyga qaytayotganda hikoyani o'qishni xohlaymizmi, Biz barcha materiallarni o'zimiz bilan olib yurishimiz va undan istalgan vaqtda, istalgan joyda foydalanishimiz mumkin. ko'pchiligi uchun bu tizim juda qiziqarli bo'ladi.

Mobil ilova yaratish texnologiyasini o'rganishga qiziquvchi yoshlari soni ko'paygani sayin bu sohada raqobat muhiti paydo bo'ladi. Ta'limni tugatib kelajak kasbi bo'lgan dasturchilik sohasi, ayniqsa mobil ilova yaratuvchi dasturchi bo'lib yuqori miqdorda daromad olishi mumkin. Android dasturlash sohasini o'rganish va dasturlar tuzish uchun juda ko'p adabiyotlar internet resurslari mavjud va shunga mos ravishda ko'plab dasturlash tillari ham yaratilgan. Bularga: Android Studio,



Xcode, Crown, Eclipse Ide kabilardir. Bu soha kelajakda insoniyatning ko'plab yumushlarini yengillashtirib odamlarga yaxshi imkoniyatlar yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ducrohet, Xavier; Norbye, Tor; Chou, Katherine (May 15, 2013). "Android Studio: An IDE built for Android". *Android Developers Blog*. Retrieved May 16, 2013.
2. Haslam, Oliver (May 16, 2013). "Download Android Studio IDE For Windows, OS X And Linux". Redmond Pie. Retrieved May 16, 2013.
3. Sinicki, Adam (August 10, 2019). "I want to develop Android Apps — What languages and program I should use & learn?". *Android Authority*. Retrieved September 12, 2019.
4. "Is there complete 'autosave disable' in IntelliJ (Android Studio)?".
5. Honig, Zach (May 15, 2013). "Google intros Android Studio, an IDE for building apps". *Engadget AOL*. Retrieved May 16, 2013.
6. Dobie, Alex (May 15, 2013). "Android Studio unveiled at Google I/O keynote". *Android Central Mobile Nations*. Retrieved May 16, 2013.
7. Olanoff, Drew (May 15, 2013). "Google Launches Android Studio And New Features For Developer Console, Including Beta Releases And Staged Rollout". *TechCrunch AOL*. Retrieved May 16, 2013.
8. "Get Started with Kotlin on Android | Android Developers". *developer.android.com*. Retrieved October 25, 2017.
9. "Use Java 8 language features | Android Developers". *developer.android.com*. Retrieved October 25, 2017.
10. "Android's Java 9, 10, 11, and 12 Support". Jake Wharton. November 27, 2018. Retrieved February 23, 2019. Hopefully by the time Java 12 is actually released D8 will have implemented desugaring for Java 11's nestmates. Otherwise the pain of being stuck on Java 10 will go up quite a bit!